

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***70210503 – Multfilm va kompyuter multiplikatsiyasi  
magistratura mutaxassisligining***

***MALAKA TALABI***

**Toshkent-2024**



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti;

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024- yil « \_\_\_ » \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.  
O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b>	6
3.	<b>Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....</b>	7
4.	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	7
	<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	11
	<b>Kelishuv varag'i.....</b>	12

## **1. Umumiy tavsifi**

70210503 – Multfilm va kompyuter multiplikatsiyasi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanishi.**

Malaka talabi 70210503 – Multfilm va kompyuter multiplikatsiyasi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari.**

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, ilmiy institutlarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, batal janrlarida badiiy kompozitsion asarlar yaratish, respublika va xorijiy ko'rgazma zallari va galereyalarda ijodiy ko'rgazmalarini tashkil qilish, Badiiy ijodkorlar uyushmasida erkin ijodiy faoliyat olib borish, animatsion filmlar uchun eskiz loyihalarini ishlab chiqish, ommaviy tomoshalar sahnalarida dekoratsiya eskizlari hamda dekoratsiyalar yaratish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatining ob'ektlari:**

- O'zbekkino Milliy Agentligi va xususiy kinostudiyalar;
- O'zbekiston Badiiy akademiyasi;
- Bolalar musiqa va ixtisoslashtirilgan san'at maktablari;

- O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi;
- Muzey va tasviriy san’at galereyalari;
- Davlat va nodavlat tashkilotlari;
- ilmiy–tadqiqot jarayoni;
- filmlarni suratga olish maydonlari;
- o‘quv jarayoni;

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- ilmiy-tadqiqot;
- tashkiliy-boshqaruv;
- pedagogik faoliyat;
- axborot-tahliliy faoliyat;

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

*70210503 – Multfilm va kompyuter multiplikatsiyasi* mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlari ning sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **Ilmiy tadqiqot faoliyatida:**

Mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot va ijodiy loyihalarni tahlil qilishi;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

xorijiy va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy konferensiyalarda, seminarlarda ishtirok etish;

xorijiy va respublika miqyosidagi ilmiy jurnallarga maqolalar tayyorlash;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish.

ilmiy ish yaratishda sohaga doir dolzarb muammolarni aniqlash va ularni ilmiy o‘rganish bo‘yicha zamonaviy bilimga, keng fikr yuritish doirasiga ega bo‘lish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va taxrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

Badiiy asar asosida animatsion eskizlar va multqahramonlar yaratish bo‘yicha ijodiy guruh faoliyatini tashkil etish;

ijodiy jarayonni tashkil etishda texnik xavfsizlik choralarini amalga oshirish; yuritayotgan faoliyati ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

badiiy animatsion film va ekran asarlarini ishlab chiqarishda yangi innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilish;

animatsion film va multfilm asarlari sifatini nazorat qilishning usullarini ishlab chiqishi va amalda qo'llashi;

**Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatida (o'rnatilgan tartibda):**

Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, bakalavriat va magistratura o'quv rejalarida o'zlashtirilgan fanlar doirasida nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;

o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallash;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, nostandart o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

fan bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat bo'yicha o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi;

uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

animatsion film va multfilm asarini baholovchi ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashishi;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilish va kasbiy faoliyatda undan foydalana olishi;

sohaning dolzarb masalalarini bilishi, ilmiy-ijodiy muammolarni va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

o'z faoliyatida animatsiya sohasiga oid meyoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilish;

rejissor va operatorlar bilan ijodiy hamkorlikda yangi loyihalar ishlashi va ularni amalga oshirishi;

ijodiy fikrlashni rivojlantirish, kasbiy madaniyatni shakllantirish;

yangi janrlar ustida ijodiy izlanishlar olib borish;

milliy kontetnlar loyihalarini yaratish va amalga oshirish;

o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish;  
ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;  
ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

kasbiy faoliyatda kompozitsiya qonuniyatlaridan foydalana olishi, filmda uslub va texnikalarini qo'llay olishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

mutaxassislik bo'yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi;

soha bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish va muntazam o'quv jarayoniga tadbiiq etib borishi.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

**Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ilmiy jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.**

#### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Faning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestr i
<b>1.00.</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1440</b>	<b>48</b>	
1.01.	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02.	MFO'M1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	3
1.03.	BBCh1314	Badiiy bezakli chizmasvir	420	14	1,2,3
1.04.	BBR1314	Badiiy bezakli rangtasvir	420	14	1,2,3
1.05.	MKBY1312	Multiplikatsiya kompozitsiyasida badiiy yechim	360	12	1,2,3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>540</b>	<b>18</b>	<b>1,2,3</b>
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	540	18	1,2,3
Kvalifikatsiya:		Pedagog- tadqiqotchi, Animator			
		<b>Jami</b>	<b>1980</b>	<b>66</b>	
<b>3.00.</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1620</b>	<b>54</b>	<b>1,2,3,4</b>
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Plastik yechim, refleks, tus, postonovka, xomaki chizgi, eskiz, birinchi plan, orqa plan, xomaki, simmetriya assimetriya, dinamika, statika, ritm, shakl, kolorit, kompozitsion joylashuv, illyuziya, tizim va uning ketma-ketligi, molbert, etyudnik, mastixin, podramnik, planshet, sous, sangina, ugol, retush, mo'yqalam, mushtabel, palitra, lok, pinen, moybo'yoq, akril, tempera, pastel, akvarel, guash, natura, etyud, natyurmort, draperovka, siluet, faktura, suratga olish maydonchasi, natural dekoratsiya, pavilon, interer, eksterer

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti



Rektor

A.Mirzoraximov

2024-yil " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_

M.O'.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti



Rektor

N.Sayfullayev

2024-yil " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_

M.O'.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi  
Direktor



M.O'.

2024-yil " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_

"O'zbekfilm" Rinokonserni  
Direktor



M.O'.

2024-yil " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_

O'zbekiston Badiiy akademiyasi

Raisi

A.Nuriddinov



M.O'.

P.Benkov nomidagi Respublika  
ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi

Direktor

U.B.Xakimov



M.O'.

2024-yil " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_